

## Tashabbusga xos tashkilotchilik

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus yo'nalishlari bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha tadbirlar tashkil etib kelinmoqda. Shu qatorda "Gidromelioratsiya" fakultetida 1-kurs talaba-yoshlari o'rtasida "Sog'lom tanda - sog' aql" shiori ostida ShAXMAT VA ShASHKA musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada fakultetimizning iqtidorli, sportga ishtiyoqi baland bo'lgan talaba-yoshlar faol ishtirok etdi. Yakunda shashka bo'yicha 1-o'rin: O'lmasov Xudoyberdiga - 110-guruh, 2-o'rin: Abdug'afforov Iskandarga - 112-guruh va 3-o'rin: Murodaliev Asqarga - 109-guruh nasib etdi. Shuningdek, shaxmat bo'yicha 1-o'rinni Tojimurodov Fahriddin 101-guruh, 2-o'rinni Ibragimov Ikromjon 103-guruh va 3-o'rinni Abdullaev Hamidjon 112-guruh egalladi. Ushbu sport tadbirlarini tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdan iboratdir.



TIQXMMI matbuot xizmati